

G‘AFUR G‘ULOMNI XOTIRLAB

Oydinova Sitora Isroilovna

Toshkent davlat yuridik universiteti 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada G‘afur G‘ulomning tavalludining 120 yilligiga bag‘ishlangan tadbirlarning mamlakatimizda keng nishonlanayotgani haqida fikrlar qayd etilgan. G‘afur G‘ulom ijodini o‘rganish bo‘yicha fikr-mulohazalar bildirilgan

Kalit so‘zlar: G‘afur G‘ulom, hujjatli film, laureat, adabiyot, mehnat faoliyati, istiqlol davri

G‘afur G‘ulom O‘zbek adabiyotining mashhur namoyondalaridan biri, Ittifoq Davlat va Lenin mukofotlarining laureate, O‘zbekiston davlat arbobi hisoblanadi. Bizga tarixdan ma’lumki G‘afur G‘ulom bolalik chog’laridan juda ko’p qiyinchiliklarga duch kelgan. To‘qqiz yoshida otasidan yetim qolgan G‘afur avval eski maktabda, so’ngra rus-tuzem maktabida ta’lim oldi. U Oktabr to’ntarishidan keyingi yillarda muallimlar tayyorlov kursini bitirib, “yangi usul”dagi maktablarda o’qituvchilik qildi. 1923 yildan bolalar uyida mudir va tarbiyachi, so’ng “Kambag’al dehqon”, “Qizil O‘zbekiston”, “Sharq haqiqati” ro’znama muharririylarida ishladi. Ro’znama uning uchun dorilfunun rolini o’ynadi, xalq hayotini o‘rganish, unda faol aralashish yo’lida muhim vosita bo’ldi. Chunki G‘afur G‘ulom vatanparvar, xalqsevar, fidoyi bir el farzandi bo’lgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017-2021-yillarga mo‘ljallangan strategiyasi adabiyot sohasida ham keng islohotlar davrini boshlab berdi. Yurtboshimizning “O‘zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini xalqaro miqyosda o‘rganish va targ‘ib qilishning dolzarb masalalari” mavzusidagi xalqaro konferensiya ishtirokchilariga tabrigida qator adiblar, shu jumladan, G‘afur G‘ulom shaxsini ham tilga oladi. Prezidentimizning “Adabiyot, san’at va madaniyat yashasa, millat va xalq, butun insoniyat bezavol yashaydi” deb aytgan so‘zlari G‘afur G‘ulom va boshqa buyuk

adiblar ijodiga e'tibor yanada oshishiga sababchi bo'ldi desak aslo mubolag'a bo'lmaydi. Jumladan, G'afur G'ulom hayoti va ijodini o'rganish, faoliyatini yoritish, ilmiy tadqiq qilish hamda targ'ib etish yo'nalishida izlanish olib borayotgan, alohida faollik ko'rsatgan Toshkent davlat yuridik universiteti o'qituvchi va talabalarni rag'batlantirish maqsadida maxsus stipendiya va ko'krak nishoni ta'sis etilgani ahamiyatga molikdir. Shuningdek, mazkur universitet va Kinomatografiya hamkorligida o'zbek yozuvchisi G'afur G'ulom hayoti va ijodiga bag'ishlab suratga olingan "Men o'zbek shoiriman" nomli hujjatli film suratga olindi.

G'afur G'ulom nainki akademik shoir, balki ijodi yoshlar ibrat olishga arzulik ijodkordir, – dedi O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisi, O'zbekiston xalq shoiri Sirojiddin Sayyid. – Milliy adabiyotimiz darg'alarining tavallud sanalarini keng nishonlashga katta e'tibor qaratilmoqda. G'afur G'ulom XX asrning eng qiyin va mustabid davrida o'zbek xalqining ovozi bilan o'z xalqini baralla kuyladi. Shoir umr bo'yi zahmat chekib, so'zning ustida ishlagan ijodkordir.

– G'afur G'ulom tug'ilishidanoq insonning qulfi dilini ochib yuboradigan ijodkor edi, – dedi O'zbekiston Qahramoni, atoqli adabiyotshunos olim Ibrohim G'afurov. – U inson tuyg'ulariga ta'sir etuvchi yuksak maqomdagi shoir va adib edi. Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev tashabbusi asosida G'afur G'ulom tavalludining 120 yilligi mamlakatimizda keng nishonlanmoqda. Aytish kerakki, G'afur G'ulom ijodida o'z davrining o'zgarishlari, yevrilishlari, yangiligi kashfiyotlari o'zining yorqin ifodasini topgan edi. U Sharqning gumanist ijodkorlari safida o'zining mustahkam va hech o'zgarmas o'rni ega. Negaki, G'afur G'ulom dunyoning yetuk ijodkorlari bilan bir safda fikrlar edi. Tantanali tadbirda mamlakatimizda adabiy islohotlarning rivojlanayotgani, G'afur G'ulom qoldirgan adabiy merosni chuqur o'rganishga alohida e'tibor qaratilayotgani, asarlarining mohiyati xususida batafsil so'z yuritildi. Ayni paytda "G'afur G'ulom ijodiy merosining o'zbek va jahon adabiy-estetik tafakkuri taraqqiyotidagi o'rni" mavzusidagi xalqaro ilmiy anjumanning Amerika Qo'shma Shtatlarida va Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida nishonlangani e'tiborga molikdir.

Adabiyotshunoslarga ko‘ra, G‘afur G‘ulomning ko‘pgina she’rlarida Sharq donishmandi ota timsoli yaqqol namoyon. “Sen yetim emassan” (1942), “Qayg‘u” (1942), “Biri biriga shogird, biri biriga ustod” (1950), “Sizlarga — yoshlar” (1947), “Bahor taronalari” (1948) va boshqalar shular jumlasidandir. “Netay” (1930), “Yodgor” (1936), “Shum bola” (1936-1962) povestlari va “Mening o‘g‘rigina bolam” (1965) va boshqa ko‘plab hikoyalarida chinakam xalq qahramonlari, milliyligimiz tasvirlangan. G‘afur G‘ulom ko‘plab asarlarini bolalarga bag‘ishlagan. Ayniqsa, uning “Shum bola” asari adabiyot muxlislari e’tiborini qozongan. Urushdan keyingi yillar G‘afur G‘ulom bir qator she’riy to‘plamlarini nashrdan chiqardi. “Yangi ibodatiga she’rlar”, “O‘zbekiston olovchlari”, “Onalar”, “O‘zbek xalq g‘ururi”, “Tong qo‘srig‘i”, “Yashasin, tinchlik!», “Bu – sening imzoing” kabi to‘plamlar shular jumlasidan. Ushbu to‘plamlardan joy olgan she’rlarda shoir tinchlik davrining muhim savollariga javob topishga, o‘zbek xalqining mehnat faoliyatidagi muvaffaqiyatlarini ko‘rsatishga intiladi.

Mustaqillik yillarida G‘afur G‘ulom ijodi yuksak qadrlanib, Prezident farmoni asosida “Buyuk xizmatlari uchun” ordeniga munosib topildi. G‘afur G‘ulom tavalludining 120 yilligiga bag‘ishlangan adabiy-ma’rifiy tadbirlar, anjumanlar mamlakatimiz bo‘ylab davom etmoqda.

Sharq adabiyotining G‘afur G‘ulom ijodiga ta’siri haqida so’z yuritganda, avvalo shoirning Umar Xayyom ijodiga munosabati, undan ijodiy ta’sirlanish darajasi, xotira quvvati, muqoyasa qilish salohiyati xususida to’xtalib o’tishimiz lozim. Shu ma’noda sharqshunos olim va tarjimon Shoislom Shomuhamedovning Umar Xayyom ruboilari tarjimalarini G‘afur G‘ulom bilan birgalikda tahrir qilgan paytlarini eslab yozgan quyidagi fikrlari xarakterlidir: “Men tarjimamni o‘qir edim, ul kishi (G‘afur G‘ulom — ta’kid bizniki T.M.) tepamda turib yelkam osha stoldagi qog’ozga ko’z tashlab, forschasini yoddan o‘qir edilar. Ustoz Umar Xayyomning deyarli hamma ruboilarni yod bilar edilar. Bugina emas, har to’rtlik muhokama qilinganida boshqa shoirlarning shunga yaqin mazmun-dagi ruboilari, qit’a va baytlaridan keltirib qo’yardilar. Ayniqsa,

Mirza Bedil asarlaridan ko'p keltirar edilar. Shunda men G'afur akaning xotira quvvatlariga qoyil qoldim va ul muhtaram zot Sharq adabiyotining mukammal qomusi ekanliklarini bildim". Bu mulohazalarda shoir xarakteriga xos: ijodiy yumushga bo'lган talabchanlik, so'z zalvoriga alohida e'tibor, badiiy matnga mas'uliyat bilan yondashuv kabi xususiyatlar namoyon bo'ladi. G'afur G'ulom nafaqat Umar Xayyom ijodini teran anglaydigan, uning ko'plab she'rлarini yod biladigan yetuk bilimdon va xotira quvvati kuchli inson, balki so'z san'ati nafosatini chin dildan his qiladigan, tushunadigan va anglaydigan, qalbida Sharq adabiyotiga nisbatan cheksiz mehr-muhabbat mujassam qomusiy bilim sohibi ham bo'lgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. G'. G'ulom. Tanlangan asarlar. – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012.
2. G'afur G'ulom. Mukammal asarlar to'plami. 10-jild. Tarjimalar
3. G'afur G'ulom. Shum bola qissasi. – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2015.
4. Mamajonov S. G'afur G'ulom prozasi. – T.: Fan, 1966 – B. 50
5. G'afur G'ulom. Mukammal asarlar to'plami. 6 tom. – T.: Fan, 1986
6. Matyoqbova T. G'afur G'ulom badiiyati. – T.: Fan va texnologiya, 2006
7. Nazarov B. G'afur G'ulom olami. – T.: Fan, 2004.
8. G'afur G'ulom zamondoshlari xotirasida. – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot - matbaa ijodiy uyi, 2003